

OMON MATCHON IJODINING O'ZIGA XOSLIGI

ОСОБЕННОСТИ ТВОРЧЕСТВО ОМОНА МАЧОНА

CHARACTERISTICS OF OMON MATCHON'S WORK

Odinayeva Ambarjon

Xorazm viloyati Urganch shahar Ranch universiteti

lingvistika(o'zbek tili) 2401-guruh magistri

Одинаева Амбаржон

Магистрант лингвистики (узбекский язык) группа 2401

Университет Ранч, город Ургенч, Хорезмская область

Odinayeva Ambarjon

Linguistics (Uzbek language), master of group 2401

Khorezm region Urgench city Ranch university

Annotatsiya: Omon Matchon — o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lib, uning ijodi milliy madaniyatning boyligi va rang-barangligini aks ettiradi. Matchon, o'z asarlarida turli xil ijtimoiy, madaniy va ma'naviy masalalarni o'ziga xos uslubda taqdim etgan. Uning asarlari ko'pincha xalq og'zaki ijodi va klassik adabiyotdan ilhomlanib, modernizmdan ham o'ziga xos xususiyatlar olib kelgan. Ushbu maqolada Omon Matchon ijodining o'ziga xos jihatlari, uning yaratgan personajlari va ijtimoiy muammolarga qarashlari tahlil qilinadi. Matchonning asarlari nafaqat adabiy san'atni, balki xalq ruhiyatini, uning kechinmalarini, orzu-umidlarini ifodalaydi.

Аннотация: Омон Матжон — один из крупных представителей узбекской литературы, чье творчество отражает богатство и разнообразие национальной культуры. В своих произведениях Матжон уникальным способом представляет различные социальные, культурные и духовные проблемы. Его работы часто вдохновлены народным устным творчеством и классической литературой, а также включают в себя элементы модернизма. В данной статье анализируются уникальные черты творчества Омона Матжона, созданные им персонажи и его взгляды на социальные проблемы. Произведения Матжона выражают не только литературное искусство, но и дух народа, его переживания, мечты и надежды

Annotation: Omon Matchon is one of the prominent figures in Uzbek literature, whose works reflect the richness and diversity of national culture. In his creative output, Matchon presents various social, cultural, and spiritual issues in a unique style. His works are often inspired by folk oral traditions and classical literature, while also incorporating distinctive features of modernism. This article analyzes the unique aspects of Omon Matchon's creativity, his created characters, and his views on social

issues. Matchon's works express not only literary art but also the spirit of the people, their emotions, dreams, and hopes.

Kalit so'zlar: Omon Matchon, adabiyot, ijod, o'ziga xoslik, milliy madaniyat, modernizm, personajlar, ijtimoiy masalalar, xalq og'zaki ijodi.

Ключевые слова: Омон Матхон, литература, творчество, уникальность, национальная культура, модернизм, персонажи, социальные проблемы, народное устное творчество, литературный стиль.

Key words: Omon Matchon, literature, creativity, uniqueness, national culture, modernism, characters, social issues, folk oral traditions, literary style.

Kirish.

Omon Matjon 1943 yil 14 fevralda Xorazm viloyatining Gurlan tumanida tug'ildi. Uning otasi – Matjon Jumanioyozov (1905-1976) shu tumanda pochta bo'limining boshlig'i lavozimida ishlar edi. Onasi – Xotira Ermatovanning (1916-1946) umri juda qisqa ekan, o'ttiz yoshga to'lganida, to'rt farzandini chirqillatib, boqiy dunyoga rixlat qiladi. Yosh Omon onasi vafot etganida, uch yashar go'dak bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, mantiqiylik va qiyosiylik, tarixiylik metodlaridan foydalanilgan.

A. Yuldashevning asarida Omon Matchon ijodining estetikasi va uning adabiyotdagi o'rni tahlil qilinadi [2]. Yuldashev Matchonning asarlarini zamonaviy o'zbek adabiyotining rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan asarlar sifatida ko'rsatadi. U, ayniqsa, ijodiy uslub va tilning beg'araz yoritilishiga e'tibor qaratadi. Yuldashev tomonidan keltirilgan misollar va tahlillar Omon Matchonning ijodiga xos yangi va o'zgacha ifoda vositalarini tushunishga yordam beradi. Bu asar ijodiy uslubning yangiligi va modernizmning aks-sadosi sifatida Matchonning o'rnini yoritadi.

A. Maqsudovning tadqiqoti esa Matchon asarlaridagi ijtimoiy masalalarni o'rganishga qaratilgan [3]. U Omon Matchon ijodini asosan ijtimoiy adolat, inson huquqlari va ijtimoiy tengsizlik kabi mavzularda shakllanadigan siyosiy va ma'naviy izlanishlar bilan bog'laydi. Maqsudovning izlanishlarida, ayniqsa, Matchonning "oqsoqol" personajlar orqali o'ziga xos ijtimoiy obrazlarni yaratishi va o'zbek jamiyatidagi muammolarni tanqidiy tahlil qilish uslubi ko'rsatilgan. Bu tahlil Matchonning asarlarini ijtimoiy-realistik adabiyot sifatida baholashda foydalidir.

B. Tursunov tomonidan yozilgan kitobda Matchonning asarlari modernizm va realizm uslublarining uyg'unlashuvi sifatida ko'rsatiladi [7]. Tadqiqotda, Omon Matchonning xalq og'zaki ijodi va klassik adabiyotdan ilhomlanib, modernizm elementlarini qanday muvaffaqiyatli qo'llaganligi haqida to'liq ma'lumot beriladi. Tursunov Matchonning asarlarini modernizmning o'ziga xos ifodasi sifatida ko'rib chiqadi va uning ijodida zamonaviy adabiy tendensiyalarning ta'sirini aniq ko'rsatadi.

Muhokama.

Hozirgi o‘zbek she‘riyatining darg‘alaridan biri Omon Matjon. Uning ilk she‘riy to‘plami “Ochiq derazalar” (1970) nomi bilan nashr etilgan. Shundan buyon qirq yillik ijodiy tajriba va mehnat faoliyatiga ega bo‘lgan shoirning “Karvon qo‘ng‘irog‘i” (1973), “Quyosh soati” (1974), “Dramatik dostonlar” (1975), “Yonayotgan daraxt” (1977), “Yarador chaqmoq” (1979), “Haqqush qichqirig‘i” (1979), “Seni yaxshi ko‘raman” (1983), “Daraxtlar va gilyohlar kitobi” (1984), “Gaplashadigan vaqtlar” (1986), “Ming bir yog‘du” (1989), “O‘rtamizda birgina olma” (1990), “Odamning soyasi quyoshga tushdi” (1991), “Qush yo‘li” (1993), “Iymon yog‘dusi” (1995), “Diydor aziz” (2011), “Xaloskor ruh” (2012) kabi yigirmaga yaqin she‘riy, nasriy, dramatik kitoblari chop qilindi.

Yosh Omon maktabda o‘quvchilar tomonidan tayyorlanadigan devoriy gazeta ishlariga bosh-qosh bo‘ladi. O‘sha yillarda Yangibozorda “Kommunizm uchun” rayon gazetasi nashr etilardi. Omon Matjonning o‘quvchilik yillarida yozilgan “Baliq bilan chirik to‘r” nomli ilk she‘ri shu gazetada chop qilinadi. Aytishlaricha, Omon Matjon do‘stlari bilan Amudaryodan oqib keladigan uy oldidan o‘tadigan yopdan yoz kunlari baliq tutishadi. Daryo suvidan ichib, chanqog‘ini bosishadi. Yop va shu yerdagi baliq ovi haqidagi bolalik kunlari natijasida “Baliq bilan chirigan to‘r” she‘ri yoziladi. She‘rda to‘rga ilingan baliq va chirigan to‘r muloqot qiladi. Chirik to‘r – chirigan tuzum ramzi bo‘lsa, to‘rga ilingan baliq – sobiq sho‘ro odami. Chirik to‘r baliqni tezroq ovchiga yetkazmoqchi bo‘ladi. Ammo uddaburon, qo‘rqmas baliq chirigan to‘rni dog‘da qoldirib, ozodlikka intiladi. Bu ishning uddasidan chiqadi ham. She‘r xulosasi chuqur optimizm va gumanizm g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Umuman she‘rda yosh shoirning ijtimoiy munosabatlar, ezgulik va yovuzlik, tutqunlik va erkinlik o‘rtasidagi abadiy ziddiyatlar haqidagi ta’sirli hukm-xulosasi timsolli obrazlarda o‘z aksini topgan.

Baliq bilan chirik to‘r,
Janjal qildi juda zo‘r.
Chirik to‘r der: Baliqvoy,
Ishing chatoq, holing voy...
Seni o‘rab olaman
Va xaltamga solaman.
Ovchiga yetkazaman,
Kuningni bitkazaman.

Bu she‘r Yangibozor rayoni gazetasi “Kommunizm uchun”da chop etilgan. Omon Matjon ota kasbini egallash uchun maktabni tugatgach, dastlab, Toshkent Aloqa institutiga hujjatlarini topshiradi. Bir hujjat tufayli, bu oliygoh talabasi bo‘lish sharafiga muyassar bo‘la olmaydi. So‘ngra, shu institut qoshidagi Aloqa bilim yurtiga o‘qishga kiradi. Bir yillik tahsildan so‘ng, Gurlanga qaytib kelib, tomma-tom yurib,

kimningdir telefon simlarini, yana kimningdir radiosini, xullas, nimaiki texnika jihozlari bo'lsa, ularni tuzatib-buzib, ustachilik bilan shug'ullanadi. Gurlanda montyorlik vazifasini sidqidildan bajaradi. Radio-texnikaga, gazeta-jurnalga ixloslik unga ota meros kasb edi. Shu bois, radiotexnik Anvar obrazi Omon Matjonning “Gaplashadigan vaqtlar” she'riy qissasiga bejiz olib kirlmagan.

Omon Matjonning birinchi she'riy to'plami “Ochiq derazalar”(1970) nashr etilgach, adabiy tanqidchilik, jamoatchilik unga iliq munosabat bildirdi. Ma'lumki, shoir urush yillarida tug'ildi, murg'ak bolalik yillari urush va urushdan keyingi qiyin ijtimoiy-tarixiy davrga to'g'ri keldi. Shu bois, ko'p qiyinchiliklar, zamona qattqliklarini boshidan kechirgan yosh shoir ilk she'riy kitobini “Ochiq derazalar” deb nomladi. Sarlavhaga chiqarilgan she'r matniga e'tibor qaratsak, Omon Matjonning ijodiy kredosi, badiiy-estetik a'moli bor bo'yi basti bilan ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Shoir o'z derazasini, deraza ortidan yog'du, soya, kulgi eshitilib turadigan farovon, osoyishta oila, ruhiy xotirjam uy, Vatanni orzu qiladi. Yosh shoir o'z yo'lini izlaydi, bedor ruhiy to'lg'anishlarini she'rga soladi. Mazkur to'plamga kirgan: “Ochiq derazalar”, “She'riyat”, “Boshqalardek sevishdik biz ham”, “Firuza”, “Shar”, “Do'stlarim”, “Bug'doy” kabi o'nlab she'rlarida yosh shoirning olam va odam munosabatlariga liro-romantik, falsafiy, patetik, hissiy tafakkuri o'z muhrini bosgan.

Natijalar.

Omon Matjon Vatanimiz tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, folklorini, o'zga xalqlar tarixini chuqur biladigan, bir so'z bilan aytganda, katta bilim va tafakkur egasi. Bu qirralar uning she'riyatida yorqin ko'rinadi. Yana Omon Matjon she'rlaridagi ruh shundan iboratki, u ko'p dunyo ko'rgan, ko'p insonlar bilan tanishgan, ularning hayoti, dardu iztirobini chuqur his etgan ijodkor sifatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Adabiyotshunos Umarali Normatov uni: “Omon jahongashta shoir”, deb ta'riflagan edi. Omon Matjon she'rlarida xalqonalik, allegorik obrazlilik, ijtimoiylik, nasrga xos epik tasvirni she'riy yo'lda ifodalash, falsafiylik, haqiqatparastlik, davr fojialarini, inson dardini dadil aytish jihatlari yorqin namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, uning yuksak mahorat, baland badiiy did natijasi o'laroq, “Gaplashadigan vaqtlar” she'riy qissasi, “Pahlavon Mahmud”, “Xorazmiyning to'rt sayohati va sakkiz bashorati”, “To'g'on”, “Haqqush qichqirig'i” kabi dramatik, falsafiy, tarixiy dostonlari, so'nggi yillarda esa “Najmiddin Kubro” tragediyasi, “To'rabekaxonim” nasriy qissasi yaratildi. Omon Matjon lirik, liro-epik, dramatik turning turli janrlarida barakali ijod qildi. Shu bilan birga mohir tarjimon sifatida ham uni yaxshi bilamiz. Jumladan, turli millat shoirlari: Shiller, Bodler, Yevgeniy Yevtushenko, Rasul Hamzatov, Yustinas Marsinyakivichyus, Shandor Petefi, Berdi Kerboboev, Suhrob Tohir, Ibroyim Yusupovlar ijodidan tarjimalar qildi.

Zero, badiiy tarjima ham alohida san'at hisoblanadi. Tarjimon bilan o'zga millat ijodkori ruhiyati orasida qandaydir uyg'unlik, ruhiy yaqinlik bo'lishi lozim, deyishadi

tarjima nazariyasi bilan shug'ullanuvchi olimlarimiz. O'zining tarjimonlik faoliyati xususida shoir shunday deydi: “Tarjimalarga kelsak, men juda usta tarjimon emasman. Muayyan vaqt uchun, ijodiy jarayon ruhiga bir: “Hormang!” tarzida kuchim yetgancha Shiller, Bodler va boshqa shoirlardan ozgina tarjimalar qildim. Yevgeniy Yevtushenko bilan juda yaqin ijodiy hamkorligimiz bor. U mening she'rlarimni rus tiliga tarjima qildi. Hatto xonadonimizda bir necha bor mehmon ham bo'lgan. Juda yaxshi eslayman, u bilan birinchi marotaba Toshkentda uchrashganimizda shunday degan edi: “Men minglab yulduzlarni kashf etgan buyuk munajjim Mirzo Ulug'bek tug'ilgan ona zaminni, uning odamlarini bir ko'rsam edi, – deb orzu qilardim. – Ulug'bek, Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy kabi buyuklar tug'ilgan yurt odamlari qanday ekan? Ular qanday tilda gaplashar ekan? Ular qanday millat ekan? – deb qiziqar edim. Nihoyat, men shunday qutlug' zaminni ko'rish baxtiga muyassar bo'ldim!” degan edi. Yevgeniy Yevtushenko, asli sibirlik. Muzlar, qorlar qoplagan bir yurtidan...

Xulosa.

Shoirning she'rlaridagi insoniyatning azob-uqubatlari, erkinlik va qiyinchiliklar o'rtasidagi kurash, shuningdek, xalqning og'ir vaqtlarda yashashga bo'lgan intilishi o'ziga xos tarzda ifodalangan. Matjonning "Baliq bilan chirik to'r" kabi she'rlari ijtimoiy adolat, erkinlik va adolatparvarlik g'oyalarini aks ettiradi.

Shuningdek, Omon Matjon nafaqat she'r yozish bilan cheklanib qolmay, tarjima faoliyatini ham olib borgan, bu orqali boshqa millatlarning adabiyotini o'zbek tiliga olib kelgan. U, shuningdek, xalqaro miqyosda ham o'zining ijodi bilan tanilgan va o'zbek adabiyotining dunyoga tanitilishida muhim rol o'ynagan.

Umuman olganda, Omon Matjonning adabiy merosi milliy adabiyotimizning ajralmas qismi bo'lib, uning asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotining o'ziga xos yuksak namunasidir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Matchon, O. Asarlar / Omon Matchon; tahr. X. Xolmatov. – Tashkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 1999. – 3 jild. – Jild 1, 45-78-betlar.
2. Yuldashev, A. Omon Matchon ijodining estetikasi / A. Yuldashev. – Tashkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2010. – 123-145-betlar.
3. Maqsudov, A. Omon Matchon va uning asarlaridagi ijtimoiy masalalar / A. Maqsudov. – Tashkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2005. – 56-73-betlar.
4. A'zamov, K. Omon Matchon: Yangi adabiy uslublar va tematik masalalar / K. A'zamov. – Tashkent: Farg'ona nashriyoti, 2007. – 32-50-betlar.
5. Saidov, T. Adabiyotshunoslik va Omon Matchon / T. Saidov. – Tashkent: Fan nashriyoti, 2012. – 89-112-betlar.

6. Shamsiyev, N. Omon Matchon va uning asarlaridagi xalq og'zaki ijodi / N. Shamsiyev. – Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti, 2008. – 14-29-betlar.
7. Tursunov, B. Omon Matchon va modernizm / B. Tursunov. – Tashkent: O'zbekistan adabiyoti akademiyasi, 2015. – 101-120-betlar.
8. Rahimov, A. Omon Matchon va uning adabiy merosi / A. Rahimov. – Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2013. – 55-67-betlar.
9. G'ulomov, Z. Omon Matchon: Adabiy tahlil va so'z san'ati / Z. G'ulomov. – Tashkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2011. – 23-44-betlar.
10. Djumaniyazov, U. Omon Matchon asarlarida ijtimoiy realistik tasvir / U. Djumaniyazov. Tashkent: O'zbekiston Milliy Akademiyasi, 2017. – 78-95-betlar.